Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 159.9
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

PSIXOLOGIK ZO'RAVONLIKNING BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Gullolaxon Nosirjon qizi Ergasheva*
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Etnopsixologiya. Ijtimoiy psixologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich tayanch doktoranti
✉ gullolaergasheva927@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada psixologik zo'ravonlikning bola shaxsining shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan. Psixologik zo'ravonlikning bolalarning emotsional holati, o'zini-o'zi baholashi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zo'ravonlik oqibatida yuzaga keladigan stress va uning bola shaxsining rivojlanishidagi o'rni ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar

psixologik zo'ravonlik, bola shaxsi, shaxs shakllanishi, emotsional rivojlanish, stress, o'zini-o'zi baholash, ijtimoiy moslashuv, oilaviy tarbiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743109

KIRISH

Bola shaxsining shakllanishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, unda oilaviy muhit, tarbiya uslubi va ota-onalar bilan o'zaro munosabatlar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, oiladagi psixologik muhit bolaning emotsional holati, o'zini anglashi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy sifatlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda bolalarga nisbatan psixologik zo'ravonlik muammosi nafaqat pedagogika va psixologiya, balki ijtimoiy siyosat hamda bolalar huquqlarini himoya qilish tizimining dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Psixologik zo'ravonlik bolaning qadr-qimmatini kamsitish, muntazam tanqid qilish, qo'rqitish, hissiy rad etish, tahdid qilish yoki mensimaslik kabi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bunday ta'sirlar bolaning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, uning shaxs sifatida shakllanish jarayonini ham izdan chiqaradi. Natijada bolada o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, xavotirlanish, emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari va salbiy xulq-atvor shakllari yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli psixologik zo'ravonlikning bola shaxsining shakllanishiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.Psixologik zo'ravonlik bolaning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi eng xavfli omillardan biri hisoblanadi. U bolaning ruhiy rivojlanishi, emotsional holati, o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvoriga bevosita ta'sir etadi. Psixologik zo'ravonlik natijasida bolaning shaxsiy rivojlanishida turli buzilishlar yuzaga kelib, salbiy xarakter xususiyatlari va noadekvat xulq-atvor shakllarining shakllanishiga zamin yaratiladi.

ASOSIY QISM

Bolalik davrida psixologik zo'ravonlikka duch kelgan bolalarda shaxsning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan o'zini-o'zi anglash, o'zini baholash, mustaqillik, mas'uliyatlilik va ijtimoiy faollikning rivojlanishi izdan chiqishi mumkin. Bunday bolalarda ko'pincha o'ziga ishonchsizlik, xavotirlanish, tortinchoqlik, tajovuzkorlik va emotsional beqarorlik kuzatiladi. Natijada bola o'z imkoniyatlariga ishonmaydigan, tashabbus

ko‘rsatishdan qo‘rqadigan va ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladigan shaxs sifatida shakllanishi mumkin.

Psixologik zo‘ravonlikning eng ko‘p uchraydigan oqibatlari qatoriga ruhiy rivojlanishning sekinlashishi, intellektual salohiyatning pasayishi, impulsivlik, o‘z xulq-atvorini nazorat qilish qobiliyatining sust rivojlanishi, past o‘zini-o‘zi baholash, yuqori darajadagi xavotirlanish hamda tengdoshlari va kattalar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnata olmaslik kiradi. Ushbu holatlar bolaning shaxs sifatida to‘laqonli shakllanishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi[4].

Oilada hukm surayotgan psixologik zo‘ravonlik muhiti bolaning o‘ziga va atrofdagilarga bo‘lgan munosabatini ham o‘zgartiradi. Ota-onaning doimiy tanqidi, haqoratlashi, mensimasligi yoki hissiy jihatdan rad etishi natijasida bola o‘zini qadrsiz va keraksiz deb his qila boshlaydi. Bunday holat bolaning «Men» obrazi va o‘z-o‘zini baholash tizimining buzilishiga olib keladi. Natijada u o‘zini muvaffaqiyatsiz, qobiliyatsiz va boshqalardan kam deb hisoblaydi[1].

Psixologik zo‘ravonlik ta’sirida shakllangan salbiy o‘zini baholash bola shaxsining rivojlanishiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatadi. O‘ziga nisbatan salbiy munosabat shakllangan bola yangi faoliyat turlarida ishtirok etishdan, tashabbus ko‘rsatishdan va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan qochadi. Bu esa uning mustaqillik, qat’iyatlilik va ijtimoiy faollik kabi muhim shaxsiy sifatlarining rivojlanishini cheklaydi.

Emotsional zo‘ravonlikka muntazam duch kelgan bolalar asta-sekin o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ifodalash qobiliyatini yo‘qota boshlaydilar. Ular qayg‘u, quvonch, g‘azab yoki qo‘rquv kabi hislarni to‘g‘ri tushunish va boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Natijada shaxsning emotsional sohasida hissiy beqarorlik, emotsional befarqlik va salbiy his-tuyg‘ularning ustunligi kuzatiladi. Bu esa bolaning boshqalar bilan samimiy va ishonchli munosabatlar o‘rnatish imkoniyatlarini cheklaydi[3].

Psixologik zo‘ravonlik bolaning kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar, o‘z fikrlarini erkin ifodalay olmaydilar hamda boshqalarning fikrini qabul qilish va tushunishda muammolarga ega bo‘ladilar. Natijada ularning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiylashuv jarayoni murakkablashadi.

Psixologik zo‘ravonlikning eng xavfli jihatlaridan biri shundaki, uning oqibatlari bolaning keyingi hayotida ham saqlanib qoladi. Bolalik davrida zo‘ravonlikka uchragan shaxslar katta yoshga yetgach, ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda, yaqin munosabatlar o‘rnatishda va hayotiy muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayrim hollarda ular bolalikda o‘zlashtirgan salbiy xulq-atvor namunalarini takrorlab, o‘z farzandlariga yoki atrofdagi insonlarga nisbatan ham zo‘ravonlik ko‘rsatishlari mumkin.

Psixologik zo‘ravonlik natijasida yuzaga keladigan stress bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir. Olimlarning ta’kidlashicha, qayg‘u, xavotir, g‘azab, qo‘rquv va qahr-g‘azab kabi hissiyotlar uzoq vaqt davomida saqlanib qolsa, ular shaxsning barqaror psixologik xususiyatlariga aylanishi mumkin. Shu sababli psixologik zo‘ravonlik natijasida yuzaga kelgan stress nafaqat bolaning joriy emotsional holatiga, balki uning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Stress psixologik zo‘ravonlik oqibatida yuzaga keladigan travmaning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Uning ta’sir darajasi organizmda shakllanadigan xavotir reaksiyasining kuchiga bog‘liq bo‘ladi. Agar bola organizmi va psixikasi ushbu bosimga qarshi tura olsa, moslashuv jarayoni yuz beradi. Biroq psixotravmatik vaziyat uzoq davom etganda moslashuv imkoniyatlari kamayib, emotsional va psixologik holdan toyish holati yuzaga keladi. Natijada bola shaxsining emotsional barqarorligi, o‘zini boshqarish qobiliyati va ijtimoiy moslashuv jarayonlari izdan chiqishi mumkin.

Oiladagi zo‘ravonlik muhiti stress holatining yuzaga kelish xavfini yanada kuchaytiradi. Psixologik stress holatidagi bola ko‘pincha xavotir, ishonchsizlik, g‘azab va qo‘rquv hissini boshdan kechiradi. Uzoq davom etuvchi stress natijasida nafaqat fiziologik buzilishlar, balki shaxsiy rivojlanishdagi muammolar ham yuzaga keladi. Xususan, bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayadi, tashabbuskorligi susayadi, ijtimoiy faolligi cheklanadi hamda tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishda qiyinchiliklar kuzatiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili oilaviy zo‘ravonlikning avlodlararo davom etish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Nosog‘lom oilalarda shakllangan salbiy munosabatlar va xulq-atvor namunalari keyingi avlodlarga ham o‘tishi mumkin. Bolaga nisbatan qo‘llanilgan zo‘ravonlik unda tajovuzkorlik, shafqatsizlik va boshqalarga

nisbatan salbiy munosabatlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Natijada zo‘ravonlik modeli keyingi hayotda ham takrorlanish ehtimoli ortadi.

Bolalarga nisbatan e’tiborsizlik va psixologik zo‘ravonlik ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasidagi hissiy yaqinlikning susayishiga olib keladi. Bunday sharoitda ulg‘aygan bolalarda ishonchli munosabatlar o‘rnatish, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyatlari yetarli darajada rivojlanmaydi. Bu esa shaxsning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalik davrida zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan shaxslarning muhim xususiyatlaridan biri - hayotiy qiyinchiliklarni mustaqil hal qilish va atrofdagilardan yordam so‘rash ko‘nikmalarining sust rivojlanganligidir. Ular katta yoshga yetgach ham o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda, yaqin munosabatlar o‘rnatishda va ijtimoiy moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ayrim hollarda bolalikda shakllangan salbiy tajriba ularning oilaviy va ijtimoiy munosabatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Oilaviy tarbiyaning disgarmonik turlari ham bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. A.E.Lichko va E.G.Eydemiller oilaviy tarbiya uslublarining shaxs rivojlanishidagi o‘rnini asoslab berganlar. A.I. Zaxarov esa ota-onalarning noto‘g‘ri tarbiyaviy yondashuvlari bolaning emotsional va shaxsiy rivojlanishida buzilishlar yuzaga kelishining muhim xavf omili ekanligini ta’kidlaydi [1].

Bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun ijobiy o‘zini-o‘zi baholash muhim ahamiyatga ega. Biroq psixologik zo‘ravonlik qurbonlari bo‘lgan bolalarda ko‘pincha o‘zining ahamiyatsizligi va qadrsizligi haqidagi tasavvurlar shakllanadi. Natijada ular ijtimoiy munosabatlarda passivlik ko‘rsatadi, o‘z fikrini erkin ifodalashda qiynaladi va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlariga ishonmaydi. Bu holat bola shaxsining shakllanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning kelajakdagi hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy faolligini belgilab beradi.

A.Yu. Yegorov va O.G. Freydmanning fikricha, psixologik zo‘ravonlik insonning “Men-konsepsiyasi”ga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlari buziladi, individual va shaxsiy sifatlarning rivojlanishida muammolar yuzaga keladi, emotsional va intellektual rivojlanish sekinlashadi hamda jamiyatga moslashish qiyinlashadi. Shu bois psixologik zo‘ravonlik bola shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi eng muhim destruktiv omillardan biri sifatida baholanadi [2].

XULOSA

Psixologik zo‘ravonlik bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, psixologik zo‘ravonlik bolaning emotsional holati, o‘zini-o‘zi baholashi, kommunikativ ko‘nikmalari, ijtimoiy moslashuvi va intellektual rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi. Bunday sharoitda ulg‘aygan bolalarda xavotirlanish, tajovuzkorlik, o‘ziga ishonchsizlik, hissiy beqarorlik hamda ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatishdagi qiyinchiliklar ko‘proq uchraydi.

Shuningdek, psixologik zo‘ravonlik natijasida yuzaga keladigan uzoq muddatli stress bola shaxsining normal rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, uning o‘zini anglash jarayonini buzadi va salbiy xarakter xususiyatlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Oiladagi zo‘ravonlik va e’tiborsizlik avlodlararo davom etuvchi salbiy xulq-atvor namunalarining shakllanishiga ham zamin yaratadi.

Demak, bola shaxsining barkamol rivojlanishini ta’minlash uchun oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratish, ota-onalarning pedagogik va psixologik madaniyatini oshirish hamda bolalarni psixologik zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik zo‘ravonlikning oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rish bolalarning sog‘lom, mustaqil va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Программа тренинговых занятий по теме: «Детско-родительские отношения»: методические рекомендации / сост. Л.А. Дубовицкая. – Ханты Мансийск: Принт – Класс, 2010. – 66с.
2. Синягина Н.Ю. Психолого-педагогическая коррекция детско-родительских отношений. М.: ВЛАДОС, 2003. 96с.
3. Техтелева Н.В. Психолого-педагогический тренинг по формированию адекватных представлений

родителей о характере ребенка-дошкольника / Н.В. Техтелева: учебно-методическое пособие. Самара: Изд-во «СНЦ РАН», 2007. -32с.

4. Цветик-семицветик: программа психолого-педагогических занятий для дошкольников. 5-6 лет / под ред. Куражевой Н.Ю., СПб.: Речь, 2012